

KIBERHUQUQ: ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR DAVRIDAGI HUQUQIY CHAQIRIQLAR VA HIMOYA MEXANIZMLARI

Shokirov Bobur Tohirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15357163>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiberhuquq tushunchasi, uning zarurligi, asosiy vazifalari va dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Kiberjinoyatchilik, yurisdiksiya, maxfiylik, axborot xavfsizligi va qonunchilikdagi kamchiliklar kiberhuquq sohasidagi asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etilgan choralar — milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, texnik vositalardan foydalanish va jamiyatni xabardor qilish zaruriyati asoslab beriladi. Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kiberhuquqni doimiy rivojlanishga undaydi hamda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab etadi.

Kalit so'zlar: Kiberhuquq, kiberjinoyatchilik, axborot xavfsizligi, yurisdiksiya, raqamli huquq, texnologik xavf, xalqaro hamkorlik, maxfiylik, qonunchilik, sun'iy intellekt.

ASOSIY QISM

Kiberhuquq – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga va ushbu munosabatlar doirasida yuzaga keladigan huquqiy nizolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan huquq sohasi hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, kibermakon, raqamli iqtisodiyot, internet orqali amalga oshirilayotgan faoliyatlar va intellektual mulk obyektlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi ushbu sohaga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Kiberhuquq bugungi kunda mustaqil va muhim huquq tarmog'i sifatida shakllanmoqda. U boshqa huquq sohalariga bog'liq bo'lishi bilan birga, o'ziga xos normalar va prinsiplarga ham ega. Mazkur huquq sohasining shakllanishi va rivojlanishi, avvalo, kibermakon bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, ularning huquqiy tartibini belgilash, ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar va obyektlarning maqomini aniqlash, ularning huquq va majburiyatlarini belgilashni talab etadi.

Kiberhuquqning asosiy predmeti kibermakonda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu munosabatlar ko'p hollarda boshqa huquq sohalari bilan kesishadi va shu sababli kompleks yondashuvni talab etadi. Masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq va boshqa sohalar kiberhuquqning amaliyotida bevosita ishtirok etadi. Kiberhuquqning asosiy vazifalaridan biri – bu kibermakonda huquqiy tartibni ta'minlashdir. Bu degani, jismoniy va yuridik shaxslarning internetdagi huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilash, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish, ularni huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshirish va monitoring qilishdir. Shuningdek, yana bir muhim vazifa – bu kibermakonda fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishdir. Chunki kiberjinoyatchilik, kiberhujumlar, ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi, axborot xavfsizligiga tahdidlar kabi hodisalar tobora kuchayib borayotgani sababli, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, intellektual mulklari, biznes manfaatlari xavf ostida qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning cheksiz rivoji kiberhuquq sohasida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ularning eng dolzarblaridan biri bu yurisdiksiya masalasidir. Kibermakonning virtual va chegarasiz tabiati tufayli jinoyatchilar bir mamlakatda faoliyat yuritib, boshqa davlatlardagi shaxslar yoki tizimlarga zarar yetkazishlari mumkin. Bu holatda

qaysi davlatning qonunchiligi qo'llanilishi lozimligi, qanday qilib jinoyatchilarni javobgarlikka tortish mumkinligi masalalari murakkablashadi. Yana bir dolzarb muammo – bu maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda turli platformalar foydalanuvchilarning katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarini yig'moqda va ularni qayta ishlamoqda. Bu esa, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga tahdid soladi. Shu bilan birga, qonunchilikda shaxsning fikr erkinligi kafolatlangan bo'lsa-da, axborot tarqatish faqat qonun asosida va zarur holatlarda cheklanishi mumkin.

Kiberjinoyatchilik – bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar bo'lib, ularning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jinoyatchilar o'z uyidan chiqmasdan turib, boshqa mamlakatlardagi tizimlarga hujum qilishi, moliyaviy zarar yetkazishi, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashi mumkin. Bunday jinoyatlarga qarshi kurashish uchun davlatlar axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishi lozim. Ammo amaldagi qonunchilikda hali ham aniqlik va aniq mezonlar yetarli emas. Masalan, O'zbekiston qonunchiligida “aqidaparastlik” tushunchasi mavjud bo'lsa-da, uning huquqiy talqini va aniq chegaralari ko'rsatilmagan. Bu esa amaliyotda turli talqinlarga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, milliy qonunchilikni takomillashtirish zarur. Bu orqali kiberjinoyatchilik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli iqtisodiyotdagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar ishlab chiqilishi kerak. Qonunchilikdagi ziddiyatlar va noaniqliklar esa har doim inson manfaatlariga asoslangan talqin asosida hal qilinishi lozim. Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Chunki kibermakon umumjahon miqyosida mavjud bo'lgan makon bo'lib, jinoyatlar bir nechta davlat hududida sodir bo'lishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar, davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, jinoyatchilarni ta'qib qilish, umumiy standartlarni ishlab chiqish va qo'llash orqali samarali kurashish mumkin. Uchinchi muhim chora – bu texnik vositalardan samarali foydalanishdir. Maxsus dasturlar, xavfsizlik tizimlari, himoya protokollari orqali axborot tizimlarini mustahkamlash va kiberhujumlarning oldini olish mumkin. To'rtinchidan, aholining xabardorligini oshirish, internetda mas'uliyatli harakat qilish madaniyatini shakllantirish, yosh avlodni axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish zarur. Bu borada ta'lim tizimi, OAV va ijtimoiy tarmoqlarning roli katta.

Xulosa qilib aytganda, kiberhuquq – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan, zamonaviy huquq tizimining ajralmas qismidir. U kibermakonda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish va shaxslar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur sohaning asosiy muammolari – yurisdiksiya masalalari, maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, shuningdek, qonunchilikdagi bo'shliqlar hisoblanadi. Ularni samarali hal etish uchun milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, texnik choralarni joriy etish va jamiyatni keng qamrovli ravishda xabardor qilish zarur. Kiberhuquqning kelajagi barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi va texnologik yangiliklarga tezkor moslashuviga bog'liq bo'lib, bu sohada doimiy ilmiy tadqiqotlar va amaliy yechimlar ishlab chiqilishi lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.R. Shakurov, M.M. Vohidov. Kiberhuquq – huquq sohasi sifatida: risola. T.: 2022.
2. Kiberhuquq onlayn kurs. <https://cyber-law.uz/uz/subject/kiber-huquq/>
3. R. Eshboyev. Jamiyatni zararli axborotlardan himoya qilishda – inson huquqlari buzilmasligi kerak. Huquqshunosdan qonunchilikka tavsiyalar.
4. <https://m.kun.uz/news/2023/07/06/jamiyatni-zararli-axborotlardan-himoya-qilishdainson-huquqlari-buzilmasligi-kerak-huquqshunosdan-qonunchilikkatavsiyalar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F07%2F06%2Fjamiyatni-zararliaxborotlardan-himoya-qilishda-inson-huquqlari-buzilmasligi-kerak-huquqshunosdanqonunchilikka-tavsiyalar>